





# SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2023- yil yanvar oyi uchun  
dastlabki ma'lumot)*

Sirdaryo viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2023- yilning yanvar oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **71,4** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **26,3** mln. AQSh dollariga yoki **58,4** % ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar, mln. AQSh dollari)


	2022- yil	2023- yil	O'sish surati, foizda	jamiga nisbatan, foizda
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	45,1	71,4	<b>158,4 %</b>	x
<b>Eksport</b> 	<b>20,2</b>	<b>30,7</b>	<b>151,6 %</b>	<b>100,0</b>
 tovarlar	20,2	30,5	150,1	99,3
 xizmatlar	00,1	0,2	280,3	0,7
<b>Import</b> 	<b>24,8</b>	<b>40,7</b>	<b>164,0 %</b>	<b>100,0</b>
 tovarlar	24,8	40,7	100,0 %	100,0
 xizmatlar	00	0,0	0,0	0,0
 <b>Saldo</b>	<b>-4,6</b>	<b>-10,0</b>	<b>x</b>	<b>x</b>



Ma'lumot uchun: Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **30,7** mln. AQSh dollariga (**51,6** % ga ko'paydi) va import hajmi **40,7** mln. AQSh dollariga (**64,0** % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – **10,0** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

## SIRDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar, ulushi, foizda.)



## SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Sirdaryo viloyati tashqi savdo aylanmasi yanvar oyida **71,4** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **26,3** mln. AQSh dollariga ko'paydi.


Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda Afg'oniston, Tojikiston, va Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Italiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



## 10 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar oyi)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 10 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan,

Rossiya Federatsiyasi (8,6 mln. AQSh dollari), Qozog'iston (26,6 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (7,7 mln. AQSh dollari), va Afg'oniston (16,6 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Sirdaryo viloyati jahonning 34 ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA da salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (12,1 %), Qozog'iston (37,7 %), Xitoy Xalq Respublikasi (10,8 %), Afg'oniston (23,3 %), Germaniya (1,5 %), Pokiston (2,2 %) va Turkiya (5,3 %) qayd etilgan.

## SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSh dollari)



Davlatlar	2021	2022	2023
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>36,3</b>	<b>5,9</b>	<b>8,6</b>
<i>Ekspart</i>	4,4	3,9	4,5
<i>Import</i>	31,9	2,0	4,1
<b>Qozog'iston</b>	<b>20,2</b>	<b>14,1</b>	<b>26,0</b>
<i>Ekspart</i>	0,8	0,6	2,0
<i>Import</i>	19,4	13,5	24,0
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>9,4</b>	<b>9,6</b>	<b>7,7</b>
<i>Ekspart</i>	2,9	5,1	3,1
<i>Import</i>	6,5	4,5	4,6



## SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar, mln. AQSh dollari)



Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Afg'oniston</b>	<b>8,4</b>	<b>6,0</b>	<b>16,6</b>
<i>Eksport</i>	8,4	6,0	16,6
<i>Import</i>	-	-	-



<b>Pokiston</b>	<b>1,0</b>	<b>0,2</b>	<b>1,6</b>
<i>Eksport</i>	1,0	0,1	1,4
<i>Import</i>	-	0,1	0,2



<b>Litva</b>	<b>0,0</b>	<b>0,3</b>	<b>0,0</b>
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,0	0,3	0,0



<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>0,7</b>	<b>0,4</b>	<b>0,6</b>
<i>Eksport</i>	0,7	0,2	0,2
<i>Import</i>	0,0	0,2	0,4



<b>Turkiya</b>	<b>1,0</b>	<b>4,2</b>	<b>3,8</b>
<i>Eksport</i>	0,0	2,6	1,6
<i>Import</i>	1,0	1,6	2,2



<b>Italiya</b>	<b>0,5</b>	<b>0,0</b>	<b>0,3</b>
<i>Eksport</i>	-	-	0,0
<i>Import</i>	0,5	0,0	0,3



<b>Germaniya</b>	<b>0,4</b>	<b>0,8</b>	<b>1,1</b>
<i>Eksport</i>	0,0	-	-
<i>Import</i>	0,4	0,8	1,1




<b>Tojikiston</b>	<b>0,2</b>	<b>3,7</b>	<b>0,3</b>
<i>Eksport</i>	0,2	1,4	0,3
<i>Import</i>	0,0	2,3	0,0



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2023- yil yanvar)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>71 417,8</b>	<b>158,4</b>
Boyovut t.	4 050,4	130,0
Guliston t.	1 390,2	82,1
Mirzaobod t.	1 826,3	66,8
Oqoltin t.	558,9	177,4
Sardoba t.	356,4	295,0
Sayxunobod t.	5 037,4	138,9
Sirdaryo t.	19 406,1	110,1
Xovos t.	4 312,0	204,7
Guliston sh.	5 177,1	122,4
Shirin sh.	12,6	0,0
Yangiyer sh.	29 211,0	307,8

**Eng yuqori hajm,  
ming AQSh dollari**

**Sirdaryo t.– 19 406,1**

**Yangiyer sh. – 29 211,0**

**Guliston sh. – 5 177,1**

**Eng quyi hajm,  
ming AQSh dollari**

**Shirin sh. –12,6**

**Sardoba t.– 356,4**

**Oqoltin t.– 558,9**

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer sh. **40,9** % ulush bilan **29 211,0** ming AQSh dollarini tashkil etdi.




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Shirin sh **0,02** % ulush bilan **12,6** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023-yilning yanvar oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **51,0 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2022- yilga nisbatan ulushi **4,2 %** ga ko'paygan.

## SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(2023- yil yanvar mln AQSh dollari, ulushi, foizda)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2023- yilning yanvar oyida 2022- yil ulushiga nisbatan **7,6 %** ga kamayib va jami TSA'dagi ulushi **49,0 %** ni tashkil etdi.





## SIRDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar, ming AQSh dollari)



1992- yil 4- yanvarda O‘zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi) ga a‘zo bo‘ldi. Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar holatiga **71 417,9** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **30 687,5** ming AQSh dollariga yetgan bolsa, import **40 730,4** ming AQSh dollari qiymatida qayd etildi.


Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**12,1 %**), Qozog‘iston (**37,3 %**), Qirg‘iz Respublikasi (**0,8 %**), Turkmaniston (**0,1 %**) va Tojikiston (**0,5 %**) davlatlari bilan qayd etildi.






# SIRDARYO VILOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI


(yanvar, ming AQSh dollari, ulushi, foizda)




Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi



2020- yil 11- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. YOII bilan Sirdaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi **35 854,3** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **6 727,9** ming AQSh dollari, import hajmi esa **29 125,8** ming AQSh dollariga yetdi.



## SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI


(2023- yil yanvar)



Joriy yilning yanvar oyida viloyatning eksportyorlari soni **81** tani tashkil etib, ular tomonidan **30 687,5** ming AQSh dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **51,6** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar, ulushi, foizda)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,4** % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**25,1** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**63,5** %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**2,5** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## SIRDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar, oylari yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>20 246,2</b>	<b>30 687,4</b>	<b>109,5</b>	<b>151,6</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7 251,5	19 497,0	69,8	2,7 m.	35,8	63,5
Ichimliklar va tamaki	8,8	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 130,4	274,8	108,4	24,3	5,6	0,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	5,8	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	530,7	771,4	3,8m.	145,4	2,6	2,5
Sanoat tovarlari	9 206,6	7 707,2	2,0 m.	83,7	45,5	25,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	483,4	869,6	84,8	179,9	2,4	2,8
Turli hil tayyor buyumlar	1565,5	1 389,1	90,3	88,7	7,7	4,5
Xizmatlar	63,5	178,3	48,0	2,8 m.	0,3	0,6



Sirdaryo viloyati eksporti yanvar oylarida **30 6876,4** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **10 441,1** ming AQSh dollariga ko'paydi.

### **XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar)**



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022- yilga nisbatan, foizda
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	1 536,8	125,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	17 671,2	3,0 m.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	127,7	148,0
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	0,0	0,0
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	0,0	0,0
Tabiiy kauchuk (sun'iy kauchuk va regeneratsiya qilingan rezina xam)	0,0	0,0
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	0,4	2,3
Qog'oz massasi va makulatura	274,4	59,0
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Ko'mir, koks va briketlar	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022- yilga nisbatan, foizda
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,0	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,0	0,0
Birlamchi shakilda bo'lmagan plastmassalar	327,4	73,9
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va boyo'qlar	0,0	0,0
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	321,8	0,0
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 269,6	20,8
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar , muyna	600,1	26,4
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	702,7	98,3
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Aniq sohalar uchun mahsus mo'ljallangan mashinalar	0,0	0,0
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	0,0	0,0
Sanoat uchun mahsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	867,2	2,5 m.
<b>Turli hil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	1 336,4	98,6
Har hil tayyor buyumlar	122,3	16,3 m.






## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(2023- yil yanvar, mln AQSh dollari, ulushi, foizda)



Soʻnggi yiliarda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2022-yilning yanvarida **30,7 %** ni 2023- yilning yanvarida **23,8 %** ni tashkil etdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **76,2 %** ni tashkil etdi.



**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar, foizda)**

2023- yilning yanvar oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti boʻyicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afgʻoniston (eksport umumiy hajmining **54,2 %**), Rossiya Federatsiyasi (**14,7 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**10,2 %**), Qozogʻiston (**6,7 %**), Turkiya (**5,3 %**), Pokiston (**4,5 %**) va boshqa davlatlarning eksportdagi ulushi **4,4** foizni tashkil etmoqda.



**SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI  
VA O‘SISH SUR‘ATLARI (2023- yil yanvar, yillar kesimida)**



Davlatlar	Ming AQSh dollari		O‘shish sur‘ati, foizda		O‘rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Afg‘oniston	6 004,3	16 602,0	71,7	2,7 m.	6	1
Rossiya Federatsiyasi	3914,3	4 511,6	89,0	115,3	4	3
Xitoy Xalq Respublikasi	5 059,9	3 117,5	174,9	61,6	3	6
Qozog‘iston	594,0	2 049,4	75,9	3,4 m.	5	2
Turkiya	2 554,7	1 610,8	2322,2 m.	63,0	1	5
Tojikistan	1 383,2	354,6	6,8 m.	25,6	2	7
Qirg‘iz Respublikasi	201,3	166,9	28,0	82,9	7	4





## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>30 687,4</b>	<b>151,6</b>
Boyovut t.	2 629,3	2,1 m.
Guliston t.	1 151,5	73,5
Mirzaobod t.	1 661,8	77,8
Oqoltin t.	427,6	141,6
Sardoba t.	181,6	150,3
Sayxunobod t.	2 754,2	189,1
Sirdaryo t.	6 598,5	117,3
Xovos t.	1 036,9	58,2
Guliston sh.	1 608,6	120,9
Shirin sh.	12,6	0,0
Yangiyer sh.	12 545,4	2,7 m.

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSh dollari

Sirdaryo t.– 6 598,5

Yangiyer sh. – 12 545,4

Sayxunobod t.– 2 754,2

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSh dollari

Oqoltin t.– 427,6

Sardoba t.– 181,6

Shirin sh. – 12,6

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer sh **40,9** % ulush bilan **12 545,4** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksport tarkibida eng past ulushni Shirin shahri **0,04** % ulush bilan **12,6** ming AQSh dollarini tashkil etmoqda.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Sirdaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **1 536,8** ming AQSh dollari qiymatli **5 075,3** tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2022- yilning mos davriga nisbatan **1 222,5** ming AQSh dollarida ko'paygani kuzatilib, **25,7** % ga ko'paydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **1 338,7** ming AQSh dollariga teng **4 942,9** tonna sabzavot, shuningdek, **198,2** ming AQSh dollari qiymatidagi **132,3** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **92,2** % ni tashkil etdi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT

GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar)

Davlatlar	Tonna	ming AQSh dollari	ulushi, foizda *
Tojikiston	28,3	11,3	0,7
Pokiston	115,0	180,3	11,7
Rossiya Federatsiyasi	344,7	576,8	37,5
Qozog'iston	4 452,7	659,1	42,9
Xitoy Xalq Respublikasi	132,5	95,4	6,2

\* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **42,9** % ga tashkil etdi.)




## SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI (2023- yil yanvar)



2023- yilning yanvar oyida import hajmi **40 730,4** ming AQSh dollarini va 2022- yilga nisbatan **164,0 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**60,4 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**17,5 %**) hamda mashinalar va transport asbob-uskunalari (**13,4 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar ulushi, foizda)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **15 895,9** ming AQSh dollariga ko'payib, **40 730,4** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



## SIRDARYO VILOYATI XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar, oyi yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O‘sish sur‘ati, foizda		Umumiy hajmga nisbatan, foizda	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>24 834,5</b>	<b>40 730,4</b>	<b>58,2</b>	<b>164,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8 152,0	24 596,1	71,9	3,0 m.	32,8	60,4
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	211,8	117,3	4,0 m.	55,4	0,9	0,3
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	1 024,2	1 397,3	3,1	136,4	4,1	3,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	297,0	0,0	0,0	0,0	0,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	9 077,6	7 143,8	5,2 m.	78,7	36,6	17,5
Sanoat tovarlari	1 816,5	1 115,3	93,8	61,4	7,3	2,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	4 098,5	5 466,4	83,1	133,4	16,5	13,4
Turli hil tayyor buyumlar	454,0	597,3	73,5	131,6	1,8	1,6
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0





Sirdaryo viloyati importi yanvar oyida **40 730,4** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilga nisbatan **15 895,9** ming AQSh dollariga ko'paydi.

### XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022-yilga nisbatan, foizda
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	29 925,1	3,1 m.
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	31,0	71,0
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	773,1	2,0 m.
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	292,7	2,0 m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Probka va yog'och-taxtalar	0,0	0,0
56 bo'limga kiritilmagandan tashqari o'g'itlar uchu xom-ashyolar	9,5	19,1
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	0,0	0,0
To'qimachilik tolalari va ularning chqindilari	0,0	0,0
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	4,7	5,5
Ko'mir, koks va briketlar	1 392,6	148,3



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar)





XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022-yilga nisbatan, foizda
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	233,2	2,2 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	4 656,2	64,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	840,6	184,0
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va buyoklar	188,3	80,4
O'g'itlar (272 guruxga kiritilganlardan tashkari)	1,3	0,0
Noorganik kimyo moddalari	70,9	46,3
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	18,0	9,7
Metaldan tayyorlangan buyumlar	141,0	150,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	72,8	16,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashkari)	666,4	69,6
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	3 515,2	154,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	797,3	60,9
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	4,2	2,2
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshka joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshka joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan kislari xam)	717,0	2,9 m.
<b>Turli hil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	281,3	172,2
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	34,9	80,7
Har hil tayyor buyumlar	347,5	163,2
<b>Xayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	296,1	0,0



## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(2023- yil yanvar, mln AQSh dollari, ulushi, foizda)



2023- yilning yanvar oyi yakuni bo'yicha Sirdaryo viloyati tomonidan **24** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Italiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Germaniya, va Turkiya) jami importning **90,2** % ulushini tashkil qildi, bu **36 747,6** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



### VILOYATNING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar, foizda)



## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (2023- yil yanvar, yillar kesimida)




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, foizda		O'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya Federatsiyasi	112 627,9	4138,0	5,7 m.	2,0 m.	2	4
Qozog'iston	151 616,2	24 558,8	4,6 m.	2,9 m.	3	1
Xitoy Xalq Respublikasi	63 296,5	4 578,6	112,3	101,5	4	6
Italiya	8 510,9	359,6	0,0	11,3	5	7
Germaniya	2 431,8	1 064,6	35,0	129,8	5	5
Turkiya	13 599,5	2 204,5	96,6 m.	2,2 m.	1	3
Qirg'iz Respublikasi	1 085,8	429,0	0,0	2,7 m.	6	2



## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar)



	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>40 730,4</b>	<b>164,0</b>
Boyovut t.	1 421,1	75,2
Guliston t.	238,7	188,8
Mirzaobod t.	164,5	27,5
Oqoltin t.	131,3	10,0 m.
Sardoba t.	174,8	0,0
Sayxunobod t.	2 283,2	105,2
Sirdaryo t.	12 807,6	106,7
Xovos t.	3 275,1	10,0 m.
Guliston sh.	3 568,5	123,1
Shirin sh.	0,0	0,0
Yangiyer sh.	16 665,6	3,5 m.

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSh dollari

**Sirdaryo t. – 12 807,6**

**Yangiyer sh. – 16 665,6**

**Guliston sh. – 3 568,5**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSh dollari

**Oqoltin t. – 131,3**

**Sardoba t. – 174,8**

**Shirin sh. – 0,0**

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer shahri **40,9** % ulush bilan **16 665,6** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Oqoltin tumani **0,3** % ulush bilan **131,3** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Shirin shahrida import mahsulotlar qayd etilmadi.




## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA TIRIK HAYVONLAR IMPORTI



2023- yil yanvar oyida import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hajmi **24 009,6** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,9** martaga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **58,9 %** ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalari asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

### OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA TIRIK HAYVONLAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar)



## SANOAT TOVARLARI IMPORTI



2023- yil yanvar oyida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **1 091,7** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **39,9** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **2,7** % ga yetdi.

### SANOAT MAHULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar)



**Rossiya Federatsiyasi**  
666,4 ming. AQSh dollari  
ulushi – 61,0 %



**Xitoy Xalq Respublikasi**  
321,7 ming. AQSh dollari  
ulushi – 29,5 %



**Turkiya**  
36,8 ming. AQSh dollari  
ulushi – 3,4 %



Sanoat tovarlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (**666,4** ming AQSh dollari), metalldan tayyorlangan buyumlar (**141,1** ming AQSh dollari), va ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**161,5** ming AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. (67) 236-86-34

